



## HIKOYALARNI TAHLIL ETISHDA MAKON ZAMON MUNOSABATLARINING AHAMIYATI

**Axmedova Sarvinoz Alimardon qizi**

Qoraqalpoq davlat universiteti

O'zbek filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7972637>

### ARTICLE INFO

Received: 16<sup>th</sup> May 2023

Accepted: 25<sup>th</sup> May 2023

Online: 26<sup>th</sup> May 2023

### KEY WORDS

Boshlanma, qahramonlar  
tasnifi, metodik vosita, tanqidiy  
tahlil, epik asar, ifoda plani.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada hikoyalarni tahlil qilishdagi asosiy unsurdardan biri makon va zamon munosabatlarning o'zaro aloqadorligi hamda muallifning ijtimoiy davr xususiyatlariga o'zaro munosabati va qolaversa, o'z turfa tajribalaridan kelib chiqqan holda yondashuv uslubining natijasi o'laroq, jamiyatga, keng jamoatchilikka xizmat qiluvchi asar bilan baholanadi. Shuningdek, maqolada hikoyaning mavzusi uning yozilish sababi tarixiga to'xtalib o'tilib, nima sababdan mavzu va makon zamon tanlangan ekanligini ochib beriladi hamda yozuvchi tomonidan ilgari surilgan ideya va g'oyalarning tahlil etilishida qahramonlarning o'zaro munosabatlari, ichki psixologik holatlari va muallifning o'ziga xos uslubi ya'ni ifoda uslubi ochib beriladi. Bunda, muallifning qaysi makon va zamon munosabatlar bilan aloqaga kirishayotgan ekanligi ham muhim vosita va detallardan biri ekanligi ham e'tiborga olinadi.*

O'zbek hikoyalarda adabiy-badiiy jarayonlardan tashqari kundalik turmush hayotimizda yuz berayotgan voqealar rivoji haqida tafsilotlar yuritiladi. Shuningdek, hikoyada jamiyat va shaxs o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning konkret yoki majoziy ma'nolarda ifodalangan holat va tasvirlarini kuzatish mumkin. Hikoyalar o'zining mavzu ko'lami va ifodalanish prinsipiga ko'ra bir va bir necha qahramonlar tilidan hikoya qilinishi mumkin. O'zbek hikoyalari va jahon hikoyalarining farqli va o'xshash jihatlarni tahlil qilish, ularda keltirilgan voqealar rivojining qaysi makon va zamonda aloqador munosabatlarning o'zaro ko'rinishi tahlil jarayonida namoyon boladi. "O'quv tahlili ikki bosqichli bo'lib, birinchi bosqichda o'qituvchi o'qitiladigan asarni tahlil qiladi, savollar tuzadi, tahlil uchun maqbul usullar tanlaydi. Ikkinchi bosqichda o'qituvchi bilan o'quvchilar hamkorligida darsda biror asar tahlil qilinadi. O'quv tahlili muayyan shaxslik fazilatlarini va xislatlarini tanishga qaratiladi. Badiiy asarda voqea yoki kechinmalar yozuvchining mahoratiga qarab kitobxonni o'z tomoniga «og'diradi». Adabiy asarni didaktik tahlil etish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyati quyidagi uch yo'nalishda uyushtirilishi mumkin".[1]



Hozirgi o'zbek adabiy jarayonining yuzaga kelayotgan muammolar yuzasidan hikoyachilikda amalga oshirilishi lozim bo'lgan turli davrlarga munosib hikoyalarni topish, tartiblashtirish, davrlashtirish muammolari ham mavjud. Aksariyat hollarda hikoyalarni ma'lum bir mavzular kesimi yuzasidan birlashtirilgan hikoya va hikoyalar to'plamini tashkil etish yoki ularning mazmun-mohiyati hajmi va shakliga ko'ra ularda o'zaro aloqadorlikni yuzaga keltirish muhim vosita hisoblanadi. Shuni aytish mumkinki, hikoyalarni tahlil qilishda makon va zamonning o'рни katta bo'lib, voqealar rivoji qaysi paytda, qayerda, qanday vaziyatda va kimlarning qurshovida yuz berayotganligi munosabatlar kesimida o'zaro ochib berilishi bilan xarakterli xususiyatlarini tashkil etadi.

Hikoyalarni tahlil qilishda qaysi makon va zamonga aloqador ekanligini bilishning yana bir yo'li muallifning til xususiyatlaridan foydalangan ekanligini tekshirish bilan baholanadi. Bunda asar tarkibida keltirilgan diologlar, monolog va shu kabilar ortidan sheva xususiyatlari va nutq uslublarni aniqlash orqali gapirish mumkin. Jumladan, o'tgan davr so'zlashuv tili bilan bugungi kun so'zlashuv tilining o'zaro farqli jihatlari mavjud. "Maktab o'quv dasturining adabiyot fani o'quv yuklamasida biror asarning o'rganilishiga 1 soat ajratilgan. Xo'sh, savol: 45 daqiqa davomida 1600 so'zdan ortiq bu asarni o'rganish va tahlil qilish mumkinmi? Asarning ifodali, tushunarli qilib o'qilishi uchun kamida 20 daqiqa kerak bo'ladi. Tashkiliy ishlar va o'qilgan mavzuni mustahkamlash bosqichlariga 10-15 daqiqa ketsa, qolgan daqiqalar o'quvchining asarni tahlil qilishi uchun yetarli emasligini ko'rsatadi. Shunday ekan, o'quvchilarni xalqaro tadqiqot metodlariga tayyorlashdan oldin o'quv dasturlari va mavzularga ajratilgan soatlarni bir tahlil qilsak, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Asar o'quvchilarga o'qib eshittirilishidan oldin, ulardan hikoyani diqqat bilan eshitish talab qilinadi. Har bir voqeaga, har bir detalga va har bir obrazga e'tibor berish kerakligi ta'kidlanadi.[2]

Hikoyachilikda tahlil etilishi lozim bo'lgan yana bir holat mavjud bo'lib bunda, o'zaro ramziylikka aloqadir hamda ahamiyatlilik darajasini yuzaga keltiruvchi qaramaqarshiliklar ham paydo bo'ladi. Ushbu qarama-qarshilik ijodkorning o'zi yashab ko'z bilan ko'rgan davr xususiyatlariga nisbatan munosabat bildirishi bilan xarakterlanadi. Bunda, asosan, ezgulik va yovuzlik kishilik jamiyatimizda munosabatlarning teran yoki konkret jihatdan ochib berilishi adabiy-badiiy asarlarning holati bilan izohlanadi. Shuni aytish mumkinki, ikkinchi jahon urushi yillari yoki Yangi O'zbekiston davrda amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan adabiy-badiiy ijod namunalarining o'zaro aloqadorligi va davr nuqtayi nazardan yaratilgan asarlarni tahlil qilish, ularning muhokama va natijalarini bugungi kun bilan taqqoslash ham dolzarbligicha qolmoqda. O'z o'rnida hikoyalarning makon va zamonlarga munosabatini bildirish yuzasidan o'tgan davrda yaratilgan hikoyalar bilan bugungi kunda yaratilgan hikoyalarning o'zaro tip jihatdan birlashuvi, aloqa so'zlashuv uslubi, badiiyati, farqli jihatlari ko'zga tashlanadi qolaversa, o'tgan davr voqealarni ochib beruvchi hikoyalar bilan bugungi kun hikoyalarni taqqoslash mumkin emas. Negaki, ularda davr, vaziyat va muhitning o'zaro aloqadorligi mavjud bo'ladi.

Hikoyalarni tahlil qilishda, mavzu va mazmun ham katta ro'l o'ynaydi. Bu esa hikoyalarda personajlar va ularning xatti-harakatlari hamda muallifning ularga nisbatan bergan xarakter xususiyatlari va asar tarkibida ishtirok etishlari bilan bog'liq bo'ladi. Hikoyalardagi ayrim kishilar jamiyatimizdagi ko'plab jabhalarda, turli ish o'rinlarida xizmat



qilayotgan ishlarning umumlashma obrazi bo'lishi bilan birgalikda hikoyalar tahlil qilishni inobatga olinishi lozim bo'lgan prinsiplardan biri ekanligini ham shundan anglash va tushunish mumkin. Shuningdek, hikoyalarda muallif tili, personajlar nutqi orqali ham makon va zamon munosabatlarining anglab etilishi aniq bo'ladi. Chet el hikoyalarida esa bunday hodisalar va shunga o'xshash ma'lumotlar izohlanishi bilan o'zbek oilalarda farqlarni keltirib chiqaradi. Bunda, chet el hikoyalarining boshlanma qismida, asosan, yillar, sana va vaqtlarning ko'rsatilishi bilan izohlanadi. Shunday qilib, hikoya janri qadim-qadimdan rivojlanib kelayotgani janrlardan biri sifatida bugungi kunda ham o'z mavqeyini yo'qotmagan.

Hozirgi kunda adabiy jarayon vakillari ham hikoyachilik ilmi va hikoyachilikda makon va zamon munosabatlarining o'zaro mutanosibligini ta'minlashda yuz berayotgan xato va kamchiliklarni anglash, ularni oldini olish borasida kattagina ishlarni amalga oshirishmoqda. Hikoyalarni tahlil qilish va o'qitishda adabiyot o'qitish metodikasining o'rni katta ekanligi va uni keng jamoatchilik va adabiy jarayon vakillariga, ilm-fan sohasiga yuksak xizmat qilib kelayotganligi yorqin dalildir.

### References:

1. Saidmurodova Sevinch Xasan qizi. Hikoya janriga oid bo'lgan asarlar tahlilini amalga oshirish usullari (G.G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasi misolida) "Science and education" Scientific journal - 2022
2. Mirodova Feruza. Adabiyot darslarida kichik epik janrlarni xalqaro tadqiqot talablari asosida o'qitish texnologiyasi(8-sinf darsligidagi Sh. Xolmirzayevning "Ot egasi" hikoyasi asosida. Academic research in educational sciences - 2021